UO‘K 821.161.2.03

“MILLION” HIKOYASI CHO‘LPON TARJIMASIDA

D.Z. Abdullayeva

Maqolada Ivan Frankoning “Million” hikoyasining 1930-yildagi o‘zbek tiliga Cho‘lpon tomonidan qilingan tarjimasi xususiyatlari o‘rganilgan. Hikoyaning g‘oyaviy-badiiy mazmunini o‘zbek tilida qayta yaratish, milliylashtirish, lakuna, realiya, ekzotizmlar hamda tarjimonning individual mahorati tahlil qilingan. Shuningdek, Cho‘lpon tarjimalarida asliyat masalasi va tarjimani o‘zbek kitobxoniga moslashtirish tamoyillari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, Ivan Franko, “Million” hikoyasi, badiiy tarjima, tarjima transformatsiyasi, milliy kolorit, ekvivalentlik, badiiy uslub.*

В статье рассматриваются особенности перевода на узбекский язык рассказа Ивана Франко «Миллион», выполненного Чулпаном в 1930 году. Анализируются способы воссоздания идейно-художественного содержания оригинала, передачи лакун, реалий и экзотизмов, а также национальной адаптации текста. Особое внимание уделяется индивидуальному мастерству переводчика, проблеме соотношения оригинала и перевода в творчестве Чулпана и принципам адаптации произведения для узбекского читателя.

Ключевые слова: *Чулпан, Иван Франко, рассказ «Миллион», художественный перевод, переводческая трансформация, национальный колорит, эквивалентность, художественный стиль.*

KIRISH

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon (1897–1938) XX asr boshlaridagi o‘zbek tarjimachilik maktabining asoschilaridan biri sifatida ham alohida o‘rin tutadi. U jahon adabiyotining sara namunalarini o‘zbek kitobxoniga yetkazish orqali milliy adabiyotning badiiy imkoniyatlari kengligini isbotlab berdi. Cho‘lpon 1930-yillarda Ivan Frankoning ikkita: “Million” va “Feruza” hikoyalarini o‘zbekchalashtirdi [1, 2]. Birinchi hikoya 1887-yilda yozilgan bo‘lib, yozuvchi unda inson qadri, mehnat, adolat va ijtimoiy tenglik g‘oyalarini ilgari suradi. Bu esa jadid adabiyoti va Cho‘lpon ijtimoiy qarashlari bilan hamohang bo‘lganligi sababli asarning tarjima uchun tanlangani ham bejiz emas deyishga asos bo‘ladi. Mazkur hikoya tarjimasi shu vaqtgacha mutaxassislar tomonidan tahlil qilinmagan edi. Hikoya tarjimasida ekvivalentlik, realiyalar, maqol-matallar, idioma va lakunalarning berilishi o‘ziga xosligi bilan ahamiyatga ega.

MATERIAL VA METODLAR

“Million” hikoyasi Cho‘lpon tarjimasida 1930-yilda Toshkentda O‘zbek davlat nashriyotida alohida kitob holida chop etilgan [1]. O‘zbek kitobxonlari hikoya tarjimasi bilan oradan ancha yillar o‘tib qayta tanishishga muyassar bo‘ldilar. Mazkur hikoya tarjimasi adabiyotshunos Naim Karimov tomonidan 2016-yilda “Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan [3. B. 53]. Biroq jurnal nashri variantida 1930-yildagi matn bilan ayrim farqlar va kamchiliklar, tushirib qoldirishlar bor. Biz tomondan tayyorlangan va 2025-yilda bosilgan Cho‘lpon tarjimalari to‘plamida 1930-yildagi variant aynan olingan, jurnal nashridagi kamchiliklar tuzatilgan va tushirib qoldirishlar tiklangan [4. B. 25].

Hikoya tarjimasi tahlilida qiyosiy tipologik, tarixiy-madaniy, semantik metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy tarjima – bu nafaqat ikki til o‘rtasidagi axborot almashinuvi, balki ikki madaniyatning o‘zaro muloqotidir. Ivan Frankoning ijodi ijtimoiy o‘tkirligi, oddiy insonlar taqdiridagi fojialarni haqqoniy yoritishi bilan

ajralib turadi. Uning “Million” hikoyasi XIX asr oxiri Galitsiya o‘lkasidagi kapitalistik munosabatlarning dehqonlar turmushiga salbiy ta’sirini ochib beradi, shuningdek, Borislavaga ilk kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi, ijtimoiy tabaqalanish, boylik vasvasasi tasvirga olinadi. Cho‘lpon tarjimasi ham shu voqelikni o‘zbek kitobxoniga ta’sirli tarzda yetkazgan.

Kitobning titul varag‘ida “Shu kungi Polsha mamlakatining “Galitsiya” o‘lkasiga qarashli “Diryaga butsik” okrugidagi neft va azakerit konlarida ishlaguvchi ishchilar va o‘sha okrug dehqonlari turmushini tasvir qiladi” degan tagsarlavha qo‘yilgan. O‘tgan asrda hikoyaning rus va ukrain tillaridagi nashrlarida esa bu tagsarlavhaga duch kelinmadi [5, 6]. Bir necha nashrlarda hikoya avval “Yas Zelepuga”, so‘ng “Million” sarlavhasi bilan chop etilgani kuzatiladi. Shuningdek, ushbu nashrlarda hikoya “Borislava hayoti manzaralari” turkumidan ekaniga izoh berilgan. Lekin o‘zbek tilidagi tarjimada bu tagsarlavhali izoh keltirilmaydi.

“Million” hikoyasining sujeti keskin hamda voqealarining shiddatli kechishi bilan o‘ziga xoslikka ega. Asarda kambag‘al dehqon Mexaylo o‘z yerida qimmatbaho neft koni bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi. Boy tadbirkor Shixterboy bu yerni sotib olmoqchi bo‘ladi va undan yerni qanchaga sotishini so‘raydi. Mexaylo bir millionga sotishini aytadi. U millionning aniq qiymatini ham bilmaydi, ammo bu juda katta boylik ekanini his qiladi. Tadbirkor avval uning gapini masxara qiladi, keyin esa yer haqiqatan ham juda qimmatli ekanini anglab, uni aldash va yerni arzonroq narxda qo‘lga kiritish yo‘lini qidiradi. Mexaylo yeriga mardikor solib, ming mashaqqatlar bilan zovur qazdirib, nihoyat neftni topishga muvaffaq bo‘ladi. Shixterboy va Mexaylo oldi-sotdi bo‘yicha hujjat imzolashadi. Biroq hujjat hiylagarlik bilan tuzilgan edi. Bundan ham qoniqmagan Shixterboy Mexayloning uyida bergan ziyofatdan keyin mast bo‘lib, shirakayf uxlab yotgan vaqtida pul solingan qopchiqni olib, uyiga o‘t qo‘yib yuboradi. Hikoya davomida “million” so‘zi nafaqat pul miqdorini, balki insonning orzu-havasi, ochko‘zligi va boylik haqidagi tasavvurlarining ramziga aylanadi.

Asarning asosiy mohiyati insonlarning moddiy boylikka intilishining oqibatlari, boylikka intilishda adolat hissining yo‘qolishi, sodda inson ham o‘z haqini talab qilishga haqli ekani, moddiy manfaatning insonparvarlikdan ustun kelmasligi kerakligi to‘g‘risidadir. Mexaylo mehnatkash, sodda, ammo o‘z manfaatini himoya qilishga intiladigan dehqon sifatida namoyon bo‘lsa, Shixterboy kapital va foyda, daromadni ifoda etuvchi obraz hisoblanadi. U voqealarga tijoriy manfaat nuqtayi nazaridan qaraydi. “Million” bu yerda faqat pul emas, balki inson orzularining ramzi, boylik vasvasasining timsoli, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ochib beruvchi badiiy obrazdir. Bu ramz orqali Ivan Franko boylik haqidagi tasavvurlar inson xulqi va munosabatlarini qanday o‘zgartirishini ko‘rsatadi. Cho‘lpon esa shu ma’noni o‘zbekcha tarjimada ham tabiiy va ta’sirli saqlab qolgan.

Yozuvchining badiiy niyati va asar g‘oyasi bosh qahramon orqali ifodalanishidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, bu hikoyada ham bosh qahramon Mexaylo Zalepiganing ichki fojiasi, uning jamiyat va boylarga bo‘lgan nafrati, shuningdek, yana boshqa qahramonlarning ruhiy holati tarjimada ham o‘zining to‘liq aksini topgan. Asar qahramonlarining o‘zaro urushlari, xotinlarning qarg‘ishlari va Mexayloning mast holdagi so‘zlashuv nutqi tarjimada jonli va tabiiy berilgan. Masalan: *Проклятые чужаки!* [5. B. 142] –*“Padaringga la’nat, shaytonlar, mushtumzo‘r boylar!”* [1. B. 3], *“Чтоб вас та землица святая, как помрете, из гробов повыкидала!* [5. B. 142] – *“Ilohim, o‘lganingizdan keyin o‘sha yerning o‘zi o‘liklaringizni go‘rdan irg‘itib tashlasin!”* [1. B. 6]. Bu kabi jumlalar badiiy tarjimada perseptiv ta’sir kuchini to‘la saqlab qolgan.

Mexaylo Zalepiga obrazining tili o‘ziga xos bo‘lib, uning ichki kechinmalari, jamiyatdan noroziligi, ichkilikka mukkasidan ketganidagi mastnamo nutqi tarjimon tomonidan o‘zbek tilidagi so‘zlashuv uslubining boy imkoniyatlari orqali tabiiy yetkazilgan. Ayniqsa, asar muqaddimasida keltirilgan xalqona ruhdagi qo‘shiq parchalarining tarjimasi bir tomondan bosh qahramon holati haqida ma’lumot bersa, ikkinchi tomondan asarning umumiy dramatizmini kuchaytirgan. Hikoyada bot-bot takrorlanuvchi Mexayloning mastlik qo‘shig‘i tarjimasida ritmik va qofiya uyg‘unligiga erishilgan:

Qo‘y, achinma, ey sevgilim,
Ichkilikni tashlash qiyin!
Xo‘p achinib, xo‘p yig‘larsan
Ichib o‘lganimdan keyin!.. [1. B. 3].

Ushbu she’riy parchaning mazmuni va ruhi tarjimon tomonidan mahorat bilan o‘zbek she’riyatiga xos vazn va ohangda o‘girilgan.

Ikkinchi she’riy parchada esa boy va kambag‘al tabaqa kishilari hayotlaridagi katta farq, ziddiyat alamli tarzda kuylanadi:

Bir boy yana bittasidan
Hayon kutadi.
Kambag‘alning umri nega
Ichib o‘tadi?
Boylar, boylar, hech narsani
Bilmaysiz sizlar.
Sizga shirin ishlab, achchiq
Ichamiz bizlar!.. [1. B. 4].

Yuqorida zikr etganimiz jurnal nashri variantida ikkinchi misradagi so‘z “hamyon” tarzida xato beril-

gan bo‘lib [3. B. 55], bu so‘z asliyatda “hayon” deb yozilgan hamda “foyda” ma’nosini bildirib, bunda boy tabaqa kishilarining o‘zlari kabi kishilardan foyda, manfaat kutishi nazarda tutilgan.

Cho‘lpon tarjimasining eng muhim xususiyati asar tarjimasi so‘zma-so‘z (taglama) amalga oshirilmay, balki tarjimaga badiiy, ijodiy yondashilgan. Tarjimon qahramonlar nutqi, psixologik holati va muallif uslubini o‘zbek tilining tabiiy ifoda vositalari orqali yetkazishga harakat qiladi. Tarjimada quyidagi usullar kuzatiladi:

1. Ma’no jihatidan yaqin so‘zlarni tanlash. Masalan, *грустный – qayg‘uli; задумчивый – o‘ychan; счастливый – mas’ud; спокойный – tinch; здоровый – sog‘lom; побежал улетел – chopib uchib ketdi; без сил, без средств, без надежды – kuch, yordam, umidlardan ayrilib*.

2. Milliy til imkoniyatlaridan unumli foydalanish. *Один – yoppa-yolg‘iz; беды, хлопоты, расходы – sarsonlik, qiynalish, sarf-suruf; корчма – pivoxona, ichkilik, araq, istakan, mayxona*.

3. Ayrim realiyalarni izohlash yoki moslashtirish. *Kraysir – ¾ bir tiyinning to‘rtdan uch bo‘lagi*. Bu atama transkripsiya orqali saqlangan va eksplikatsiyadan foydalanilgan. Avstriya puli – kraysirning qaysi milliy-moliyaviy tizimga mansubligini ko‘rsatadi. Desyat, desyatina rus tilida o‘n ma’nosini bildiradi. Bu so‘z “bir gektar” deb berilganda mazkur zamonaviy o‘lchov atamasi bilan tarixiy muhit ifodasiga daxl qilingan bo‘lar edi. “Ko‘pchik” – tarixiy-huquqiy realiya bo‘lib, kupes, kuplya-prodaja kabi rus tilidagi so‘zning o‘zbekcha talaffuzi. Tarjimon uni hujjat, shartnoma deb o‘girmay, realiyani saqlaydi va uni izohlaydi. Bu esa realiyani saqlash va kontekstual eksplikatsiya hisoblanadi.

4. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqni saqlash. *Бедный – sho‘rlik; терпеть не могу – toqatim qolmadi; проклятый – la’nati; злой – g‘azabidan dir-dir qaltiragan; кричать – qichqirmoq, baqirmoq; хохот – qahqaha; беда – shum shamol; нищий – gadoy*.

Cho‘lpon tarjimada milliy koloritni, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va ruhiy holatini jonli yetkazish uchun so‘zlashuv uslubidagi so‘zlar, frazeologik birliklar (iboralar) hamda xalqona ifodalardan foydalangan. Asar qahramonlari oddiy dehqonlar, mardikorlar va qashshoqlashgan kishilar bo‘lgani sababli ularning nutqida kitobiy yoki rasmiy so‘zlar emas, aksincha, jonli so‘zlashuv nutqiga xos leksika ustunlik qiladi. Cho‘lpon bu jihatni o‘zbek tilining so‘zlashuv qatlamidagi ekvivalentlari orqali ifodalaydi. Masalan, Mexaylo nutqida ko‘p bor qo‘llanilgan “mushtumzo‘r” so‘zi boylarning zolimligini, zo‘ravonligini ko‘rsatish uchun ishlatilgan ekspressiv so‘z hisoblanadi: *“Yo‘q, sizga tegmaydi, siz bizning jigar-bag‘rimizdan o‘tkazgansiz, mushtumzo‘r boylar!”* [1. B. 4]. *“Rahmatlik xotinim tomonidan og‘aynilariga qaytarib berilgan va ular tomonidan mushtumzo‘r boylarga sotilgan yerda esa o‘nta zovur kavlab qo‘yganlar; har birining chuqurligi besh-olti sarjin keladi, ba’zilari hatto yigirma-yigirma besh sarjinga ham yetadi.”* [1. B. 10]. *“O‘sha yerni deyarlik bekorga sotib olgan mushtumzo‘r hozir katta boy, Borislavdagi birinchi aroq zavodining egasi”* [1. B. 10]. *“Boylarga, mushtumzo‘rlarga, odam shaklidagi zuluklarga qancha karam qilasan, men sho‘rlikni esa mana bu hollarga solasan!”* [1. B. 48].

Hikoyada ichkilikka mukkasidan ketgan kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan so‘zlashuv shaklidagi “piyanista” so‘zi uchraydi. Bu aslida rus tilidagi “пьяный” degan so‘zning buzilgan, o‘zbekchaga moslashtirilgan shaklidir. Hikoyada Mexayloning kelinbibisi nutqida uchraydi: *“Mana bu sho‘rlik bolalarning nima gunohlari bor ediki, haligi la’nati piyanista tufayli nobud bo‘lishib ketayotirlar”* [1. B. 20].

“Boshimga urarmidim”, “oyog‘i osmondan kelar”, “it azobini ko‘rsin” kabi birikmalar ham oddiy xalq tiliga xos bo‘lib, matnga jonli va ta’sirli ruh bag‘ishlaydi. Mexayloning xalqning oddiy tabaqasi vakili ekani uning nutqidan ham seziladi: *“Jindak ul-bulim bor, boshimga urarmidim men uni?”* (Jurnal variantida “jindak” o‘rnida “chindan” tarzida xato berilgan) Shixterboyning Mexaylo bilan oldi-sotdi bo‘yicha bahsida ham shu so‘zlar uchraydi: *“U ikki desyatni boshimga uramanmi men?”* Mexayloning kelinbibisining jahl ustida aytgan “*Balki hammangizning oyog‘ingiz osmondan kelar hali!”* gapida “oyog‘i osmondan kelmoq” iborasi kamyob hisoblanadi. Kelinbibining qarg‘ishida “it azobini ko‘rmoq” iborasi uchraydi: *“Ilohim, otangiz tinch o‘limni ko‘rolmasdan, it azobini ko‘rib o‘lsin!”* Mexaylo kelinbibisi nutqi orqali feodal tuzum sharoitidagi dehqon ayollarning umumiy tipik obrazini ko‘rish mumkin.

Tarjimada leksik tanlov alohida e’tiborga loyiq hisoblanadi. Cho‘lpon o‘zbek kitobxoni uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim realiyalarni milliy til imkoniyatlari orqali izohlaydi yoki mazmunan yaqin ifodalar bilan almashtiradi. Bu esa asarning o‘qilishini yengillashtirish bilan birga, uning badiiy ta’sirdorligini ham saqlab qoladi. Hikoya qahramoni Mexaylo tilidan boylarga qarata aytilgan: *“Яц Зелепуга вам не мякиш, чтобы из него что хочешь лепить!*” jumlasi [5. B. 139] “Mexaylo Zalepiga siz aytgan yumshoq xamirlardan emas!” deb o‘girilgan. Bunda “мякиш” (non, meva, qovun, tarvuz kabi narsalarning yumshoq qismi) so‘zi o‘rniga Cho‘lpon “yumshoq xamir” degan o‘ziga xos so‘z birikmasini ishlatadiki, Zalepiganing o‘zi haqida tabiatan “bo‘sh, yuvosh emasman” deyayotgani oson anglashiladi. Zalepiganing “yumshoq xamir” emasligi uning xulq-atvori, sajiyasining qandayligiga ishora qiladi. Bu sifatlash Cho‘lpon tomonidan qo‘llangan kam iste‘moldagi so‘z bo‘lib,

uni tarjimonning ijodkorligi deyish mumkin. Yoki xotinining olamdan o‘tib ketganligi Mexayloning tilidan *“Пошла моя милая к господу богу на склад...”* jumlasi *“Mening sevgilim bo‘lsa, xudoning g‘aznasiga qarab ketdi...”* tarzida beriladi. Bu ham Cho‘lponning tarjimon sifatidagi topqirligi deyish mumkin.

Cho‘lponning boshqa tarjimalarida ham uchraydigan salomlashish shakli bo‘lgan *“Kun oydin”* birikmasi hikoyaning bir necha o‘rnida keladi. Odatda rus tilidan o‘girilgan asarlarda *“Добрый день”*ni *“Xayrli kun”* deb tarjima qilish an’anasi bor. Biroq bu salomlashish shaklida rasmiy ohang seziladi. Cho‘lpon esa hozirgi turk tilida ham foydalaniladigan *“Gunaydin”*ga hamohang *“Kun oydin”* birikmasini keltiradiki, u so‘zlashuv uslubiga xos hamda samimiy jaranglaydi.

Hikoyada turmushga chiqayotgan qizning otaonasi tomonidan kuyovga beriladigan mol-mulk (ko‘chmas mulk, uy, yer kabilar) o‘zbek tilidagi “qalin” so‘zi bilan o‘girilgan: *“Xotin, erga beriladigan qalin o‘rnida, yana uch desyat yer berdikim, u yer ham Zalepiganing o‘z yeriga tutashardi..*” Asliyatda bu tushuncha *“приданое”* shaklida uchraydi. “Приданое” ukrain va rus xalqlaridagi odat, udum bo‘lib, qizni turmushga berayotganda unga qo‘shib beriladigan (pri+dat – qo‘shib bermoq fe’lidan) mol-mulkka aytiladi, bu narsa “qizning sep”iday tushunilishi mumkin, biroq u boshqacha shakldagi merosdir. Bunday udum o‘zbek xalqida mavjud bo‘lmagan, aksincha, kuyov tomonidan qizga beriladigan pul, mol-mulk kabi kattaroq qiymatga ega narsalar “qalin” deb yuritilgan. “Приданое” so‘zining aynan ekvivalenti bo‘lmasa ham, Cho‘lpon o‘zbek xalqi tafakkurida mavjud “evaz” ma’nosi ifodalanadigan “qalin” so‘zi bilan almashtirgan.

Iboralar va frazeologik birliklar tarjimasida o‘zbek tilining boy frazeologik fondidan keng foydalanilgani asarning badiiy ta’sir kuchini oshirgan. Qahramonlarning ichki kechinmalari, alam va o‘rtanishlari tayyor iboralar va jonli xalqona birikmalar orqali ifodalangan: *“Tish qayramoq”* – birovga nisbatan yashirin adovat saqlash, o‘ch olishni rejalashtirish ma’nosini anglatuvchi ibora asar kontekstiga, xususan, Shixterboyning Zalepiga yeriga ko‘z olaytirishi voqeasiga juda mos tushgan. *“Yurak-bag‘rini tilkalamoq”* qattiq ruhiy azob chekmoq, iztirobga tushmoq ma’nosini berib, hikoyada ukaning opasi qarg‘ishlarini eshitib chekkan vijdon azobini kuchaytirib ko‘rsatadi. *“Esini yo‘qotmoq / kallasi ishlamoq”* Mexayloning ruhiy holatini, aqliy faoliyatini bildirishda so‘zlashuv tilidagi sodda va tushunarli shakllarda berilgan.

Xalqona va mahalliy ruhdagi ifodalar, jumladan, maqol va maqolsimon birikmalar faol uchraydi. Hikoyada an’anaviy xalq maqollari kam uchrasa-da, xalq og‘zaki ijodiga xos hikmatli va maqolga o‘xshash iboralar tarjimada o‘z aksini topgan: “...*а что с воза упало, то пропало”*[5. B.141] – *“Bir marta xurjundan tushgan narsa qaytib topilmas”* – boylarga sotilgan yerni yoki boy berilgan imkoniyatni qaytib olib bo‘lmasligini anglatuvchi hikmatomuz ifoda bo‘lib, Mexayloning qayinog‘asi tomonidan aytiladi. Bu tarjima orqali ukrain dehqonlarining turmush tarzi va dunyoqarashiga xos mahalliy kolorit o‘zbek kitobxoniga yaqin va tushunarli tarzda yetkazilgan. *“Yer ovqat so‘ramaydi-ku”* iborasi Mexaylo nutqida uchraydi hamda dehqonlarning yerga bo‘lgan munosabatini, uning tirik jon emasligi va yotishidan zarar yo‘qligini bildiruvchi xalqona majoziy ifoda bo‘lib, uning tarjimasi mantiqiy va leksik jihatdan puxta ishlangan. Ovqat yeyish insonga xos harakat, hikoyada esa bu harakat yerga nisbatan qo‘llanib, jonlantirish badiiy usuli orqali obrazli tasvir yaratilgan. Bunda yerning dehqon uchun qanchalik qadrli ekanini ushbu jonlantirish vositasi qo‘llanishidan ham anglash mumkin.

Hikoyadagi iboralar personajlarning ichki dunyosi, o‘zaro munosabatlari va ruhiy zo‘riqishlarini ta’sirli yetkazishga xizmat qilgan: *“Yurak-bag‘ri achishmoq”* – birovga rahm qilish, achinmoq ma’nosini anglatuvchi keng tarqalgan ibora. *“Boshimni o‘rtaga qo‘yib shart qilishaman”* – qat’iy ishonch, qasam yoki jon fido qilib gapirish ma’nosidagi frazeologik birlik Mexayloning qaynog‘asi tomonidan aytiladi. *“Cho‘ntagida yellar esadi”* hech qanday puli yo‘q, qashshoq holatni ko‘rsatuvchi majoziy va jonli ibora bo‘lib, Mexayloning moliyaviy ahvoli tang ekanini ta’sirli ko‘rsatadi. Tarjimada *“Qo‘l siltamoq”* biror ishdan umidini uzmoq yoki befarq bo‘lib qolmoq ma’nosida beriladi.

Hikoyada maqollar bilan birga xalq tilida shakllangan hikmatli va majoziy birikmalar ham uchraydi: *“Моя хата с краю, ничего не знаю. Не мое просо, не мои воробьи”*[5. B. 155]. Cho‘lpon tarjimasida birinchi ibora uchramaydi, ikkinchi maqolomuz jumla esa quyidagicha: *“Mening tarig‘im emas, men sochganim yo‘q, mening bedonam ham yemaydi uni!”* – deydi Mexayloning qayinog‘asi. Bu ifoda boshqalarning muammosi yoki gunohiga men aloqador emasman, degan ma’noni bildiradi. Mexayloning qayinog‘alardan yordam so‘raganida bir qayinog‘a ikkinchisiga yordam berishni istamasligini bildirish uchun ana shu iborani ishlatadi.

“Bo‘ridan qo‘rqqan odam to‘qayga kirmaydi” – xavf-xatar yoki qiyinchiliklardan qo‘rqib, umuman, ish boshlamaslik noto‘g‘ri ekanligini, tavakkal qilish kerakligini anglatuvchi maqol. Hikoya asliyatida *“Волков боятся – в лес не ходить!”* shaklida uchraydi. Tarjimashunoslikka oid tadqiqotlaridan birida G‘.Salomov “Bo‘ridan qo‘rqqan o‘rmonga kirmas” shaklidagi maqolni keltirib, “o‘zbeklarda obrazli asosi bo‘ri nomidan iborat aynan shunday maqol yo‘q, lekin xuddi shu ma’noda aytilgan boshqa bir qancha muqobil variantlar bor. Masalan, chigirtka-

dan qo‘rqqan ekin ekmas, chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas”, deb yozadi [7. B. 47]. Ayni shu maqol tarjimasi borasida bo‘lgan bahslarga javob sifatida adabiyotshunos olim davom etib shunday deydi: “... birinchidan, bu maqol majoziy ma’noda ishlatilgandir, ikkinchidan, tarjimada, asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning territoriyasi, tabiiy sharoitlari yoxud urf-odatlari va milliy xususiyatlari emas, balki u qaysi tildan tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning territoriyasi, tabiiy sharoitlari va milliy xususiyatlarini aks ettirish kerak” [7. B. 48].

Har ikki xalq tilida faol ishlatiladigan “qiyomat” so‘zi bilan bog‘liq birikmalar bir necha o‘rinda qo‘llanadi.*“Qiyomat yaqinlashganga o‘xshaydi”* – *Видать, конец света приходит!* – mutlaqo kutilmagan, noodatiy holat, ya’ni kambag‘al odamning, ya’ni Lyudka Libakning to‘satdan yer sotib olishiga ishlatilgan jumla orqali istehzo va hayrat kuchli ifodalanadi. Hikoyaning yana boshqa o‘rinlarida turli shakllarda qo‘llanilgani kuzatiladi: *настоящее светопреставление – qiyomat qoyim; бушевала буря – qiyomatlar qo‘pdi.*

Cho‘lpon tarjimani so‘zlarni almashtirish, so‘zma-so‘z tarjima deb emas, balki asarning ruhini qayta yaratish deb tushunadi. Shu bois u ko‘p hollarda formal ekvivalentlikdan ko‘ra dinamik ekvivalentlikka yaqin yo‘l tutadi. Hikoyaning so‘nggi qismida qahramonning ichki fojiasini kuchaytiruvchi frazeologik birliklardan unumli foydalanilgan. Mexayloning holati tasvirida *“esidan ajralgan kishiday bo‘lib qoldi”* tarzida maqsadiga yetolmagan, butun umidlari puchga chiqqan insonning aqliy va ruhiy loqaydligini bildiruvchi epitet qo‘llangan. Shuningdek, qahramon holatining tasvirida*“jondan ayrilish bilan baravar”* bo‘lgan inson uchun o‘z ishi yoki orzusidan ayrilish o‘limdek og‘ir ekanini ko‘rsatuvchi kuchli majoziy ibora ishlatilgan. *“Darmoni qurimoq / qo‘lida puli qolmadi”* kabilar asar qahramonining jismoniy va moddiy ojizligini aks ettiradi. Hikoyada xalqona va majoziy obrazli ifodalar ham o‘ziga xos qo‘llangan. *“Neft, xuddi qarg‘ish tekkanday, indamas, ko‘rinmas”* jumlasida jonsiz narsaga insonlarga xos xususiyat berish (jonlantirish / personifikatsiya) orqali qahramonning yashirin nolalari va tabiatning beshafqatliligi ochib berilgan. Mexayloning neft qazishida uzoq vaqt biror natija chiqmaganda yozuvchi *“Zovur sira damini chiqarmaydi”* deb yerning o‘z boyligini sira bermayotgani majoziy tarzda jonli tilda ifodalangan.

Cho‘lpon hikoyadagi maqolsimon birikmalar, so‘zlashuv uslubidagi so‘zlar va iboralarni shunchaki so‘zma-so‘z emas, balki o‘zbek tilining frazeologik va stilistik boyligiga tayangan holda moslashtirgan. Bu esa hikoyadagi qahramonlar ruhiyati, fojiasi va davr muhitining kitobxonga hech qanday to‘siqlarsiz, ta’sirli va ravon yetib borishini ta’minlagan.

Qahramonlarning ruhiy holati, keskin munosabatlari va muhitning og‘irligini ko‘rsatish uchun tarjimon quyidagi so‘zlashuv leksikasidan unumli foydalangan: *“Chalapishti”* laqabi so‘zlashuv uslubi bo‘lib, personajning fe’l-atvori va xususiyatini ochib beradi. Asliyatda bu so‘z “Недоваренный”, ya’ni lug‘aviy ma’nosi “xom, chala qaynagan”ni bildiradi. Cho‘lponning bu laqabni Chalapishti deb tarjima qilishi adekvat tarjima bo‘lgan.

Hikoya tarjimasidagi*“piyanista”, “lofchi”* so‘zlari maishatga berilgan yoki haqiqatdan yiroq gaplarni gapiradigan odamlarga nisbatan ishlatiladigan oddiy so‘zlashuv uslubidir. *“Esipast”, “tumoyoq”, “yalangoyoqlar”* degan so‘zlar qahramonlarning ijtimoiy holatini, qashshoqligi yoki aqliy salohiyatini mahalliy lahjaga xos tarzda tasvirlaydi. Tarjimada *“pishillab gapirardi”, “g‘uduranishga tushadi”, “g‘ovlanganday yuradi”* kabi tashqi fiziologik holatlarni keltirish bilan qahramon obrazi tasvirlanadi. Maishiy leksikaga mansub*“chalapishti”*, *“paqir”*, *“chopon”*, *“xurjun”* kabi o‘zbekcha so‘zlar orqali tarjimada tarixiy muhit manzarasi saqlangan.

Qahramonning ruhiy va jismoniy toliqishi, atrofdagilarning unga bo‘lgan munosabati jonli so‘zlashuv leksikasi orqali ochib berilgan: *“Rangingiz o‘chib, sarg‘ayib, shu qadar ozib ketibsizki...”* deganda qahramonning og‘ir mehnat va doimiy iztirobdan holdan toygani anglashiladi. Mexayloning neftni topgandagi o‘ta kuchli hayajoni va quvonchi *“jinnilarcha baqirgani holda”* birikmasi bilan ifodalanadi.

Tarjimada realiyalar va o‘lchov birliklarining transkripsiyasi saqlangan yoki o‘zbek tiliga moslashtirilgan. Masalan, *“desyat”* (desyatina – yer o‘lchov birligi), *“sarjin”* (uzunlik o‘lchovi), *“qiron”* (pul birligi) kabi eskirgan va mahalliy realiyalar o‘z holicha yoki matn kontekstiga moslashtirilgan holda saqlangan. Bu asarning tarixiy ruhini buzmaslikka xizmat qilgan.

Cho‘lpon epitet, metafora, qiyos, mubolag‘a kabi tasviriy vositalarni imkon qadar saqlashga intiladi. Agar aynan saqlash imkoni bo‘lmasa, ularni o‘zbek tilida xuddi shunday estetik ta’sir beradigan vositalar bilan almashtiradi. “Xuddi” so‘zi eng ko‘p qo‘llangan bo‘lib, bu so‘z vositasida hosil qilingan birikmali o‘xshatishlar 18 o‘rinda keladi. Masalan, *xuddi neftli yerday, xuddi o‘likka yig‘laganday, xuddi bolalari o‘lganday, xuddi och qolgan ayiqday, xuddi so‘yilayotgan kishiday, xuddi qarg‘ish tekkanday, xuddi jinni bo‘lgan odamday, xuddi esidan ajralgan kishiday, xuddi zaharlangan darrandaday, xuddi mast odamday, xuddi eng yomon dushmanni urayotganday, xuddi bo‘ronday, xuddi bir silliq oynakka tushganday, xuddi o‘ziga xavfsiz bir joy axtarganday, xuddi soqov odamday, xuddi shamday.*

O‘xshatish qo‘shimchasining *-day* shakli qo‘llanilib, uning vositasida qiyoslash, taqqoslash mazmuni

hosil qilinadi. Bu esa kitobxonga tasvir, holat, manzarani aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, *qo‘rquv ostida ezilayotgan kishilarday, tog‘day tuproq, cho‘llardagi o‘tlarday, tilagi burungiday mustahkam, to‘rga tushgan baliqday, yuzlari qari chollarday, uni isbot qilg‘unday, miyasi g‘ovlanganday yuradi, qaynoq suvga tushgan chivinday, eslik bir maxluqday, yuragiga tekkanday sanchildi, bir kuch tomonidan quvalanayotganday, yengil chertilganday, oyoq ostidagi chumoliday bosib* kabi jonli o‘xshatishlar voqealar rivojini tezlashtiradi, ba’zilari o‘quvchiga emotsional-ekspressiv ta’sir ko‘rsatib, ruhiy zo‘riqish holatiga ham soladi.

Cho‘lpon ayrim o‘rinlarda milliy kitobxon uchun tushunish qiyin bo‘lgan birliklarni milliy muhitga yaqinlashtiradi. Biroq bu jarayonda asliyatning g‘oyaviy mohiyati o‘zgarmaydi. Shu jihatdan uning tarjimasi erkin tarjima emas, balki ijodiy ekvivalent tarjima hisoblanadi. Tarjimashunoslikda tildan tilga o‘girishda asliyatdagi milliy-madaniy xususiyatni saqlab qolish, boshqa tilda mavjud bo‘lmagan tushuncha yoki so‘z o‘rniga qabul qiluvchi tilning o‘z tabiatiga mos, kitobxonga yaqin va tushunarli so‘zni qo‘llash hodisasi juda muhim o‘rin tutadi.

Hikoya tarjimasida qo‘llangan ekzotizmlar, realiyalar (milliy-hududiy koloritni ifodalovchi so‘zlar) va lakunalarning quyidagi shakllari uchraydi:

Ekzotizmlar (ekzotik leksika): boshqa xalq yoki millat turmush tarzi, madaniyati, urf-odati va muhitiga xos bo‘lgan, lekin tarjima qilinayotgan tilda muqobili yo‘q yoki kam uchraydigan so‘zlar. Ekzotizmlar va realiyalar asar yozilgan davr va hududning o‘ziga xos koloriti va muhitini kitobxonga yetkazib berishda muhim vosita hisoblanadi. O‘lchov va maydon birliklari: “Desyat” (desyatina) – chor va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qo‘llangan maydon o‘lchov birligi (taxminan 1,09 gektar). Masalan: “uning bisotida bor-yo‘g‘i uch desyat yomon va unumsiz yeri bo‘lsa ham”. “Sarjin” (сажень) – uzunlik o‘lchov birligi (taxminan 2,13 metr). Masalan: “har birining chuqurligi besh-olti sarjin keladi”. Tarjimon ushbu o‘lchov birliklarini zamonaviy metr yoki gektarga o‘zgartirmasdan transkripsiya usulida saqlab qolgan, bu esa davr koloritini aniq yetkazishga xizmat qilgan.

Pul va moliyaviy realiyalar: “qiron” va “kraysir” – Avstro-Vengriya imperiyasining pul birliklari (kreyser/krajczár). Masalan: “o‘shalarning hammasiga uch yuz qiron beraman”, “cho‘ntagida yolg‘iz yigirma ikki kraysir chaqa qolgan edi”. Tarjimada mahalliy valyuta nomlari aynan saqlangan. Ushbu realiyalar asar voqealari aynan qaysi siyosiy-iqtisodiy hududda (Avstro-Vengriya tarkibidagi Galitsiyada) kechayotganini ko‘rsatadigan asosiy indikatordir.

Joy nomlari va soha realiyalari: “Galitsiya”, “Diryaga butsik”, “Borislav”, “Valanka”, “Dragovich” kabi toponimlar asarning tarixiy va geografik haqqoniyligini ta’minlaydi. “Azakerit” (ozokerit) tog‘ mumi, neft sanoati bilan bog‘liq mineral manba bo‘lib, “zovur” esa bu kontekstda neft qazib olinadigan chuqur, quduq yoki shaxta ma’nosida qo‘llangan soha realiyasi hisoblanadi.

Lakunalar (bo‘shliqlar) va ekvivalentsiz leksika. Bir tilda mavjud bo‘lgan, lekin boshqa tilning leksik tizimida to‘g‘ridan to‘g‘ri muqobili (ekvivalenti) bo‘lmagan so‘zlar yoki tushunchalarga aytiladi. Tarjimada murojaat va muomala shakllaridagi lakunalar quyidagicha uchraydi: “Shixter afandi”, “Mexaylo afandi”. Asliyatdagi “pan” murojaat shakli o‘zbek tiliga “afandi” so‘zi orqali funksional muqobil sifatida o‘girilgan. Bu tarjimashunoslikda domestikatsiya (moslashtirish) usuli bo‘lib, o‘zbek kitobxoni uchun murojaatdagi hurmat va masofani tushunishni yengillashtiradi.

Ijtimoiy va qarindoshlik munosabatlaridagi lakunalar. Hikoya tarjimasida o‘zbek tilining boy qarindoshlik terminologiyasidan foydalanilgan: *kelinbibi, qayinbirodar, qayinegachi, qayni, kuyov pochcha, yanga, quda, pochcha*. G‘arb tillarida qarindoshlik munosabatlari umumlashgan so‘zlar (*shurinova jena, shurin, shuryachok, km, kuma*) bilan berilsada, o‘zbek tilidagi lakunalarni to‘ldirish va voqealarning oilaviy-maishiy muhitini tabiiy aks ettirish uchun tarjimon milliy qarindoshlik terminlaridan mahorat bilan foydalangan. Bu esa funksional va kontekstual ekvivalentlik bo‘lib, oilaviy munosabatlar va murojaat shakllari o‘zbek tili milliy koloritiga moslashtirilib, asarning o‘qilishi va kitobxon tomonidan qabul qilinishi yengillashtirgan.

Maishiy va turmush realiyalari quyidagicha uchraydi “Qovoqchi” –ichkilikxona/pivoxona egasi. “Mushtumzo‘r boylar” – mahalliy kapitalistlar/ kulaklar. “Chakmon”, “barra shapka” – milliy libos va maishiy buyum ekvivalentlari. Transkripsiya va transliteratsiya: *Ozokerit (azakerit), sajen (sarjin), desyatina (desyat), kreyser (qiron, kraysir)* kabi so‘zlarda aynan saqlash usuli qo‘llangan bo‘lib, bu asarning ekzotik va tarixiy muhitini saqlab qolgan.

Pragmatik moslashuv. Tarjimadagi lakunalar shunday to‘ldirilganki, natijada kitobxon ham XIX asr G‘arbiy Ukrainadagi neft konchilari ahvolini anglaydi, ham qahramonlarning ruhiy-ijtimoiy holatini o‘z tilida tabiiy qabul qiladi.

Milliy-koloritli so‘zlar. Tarjima matniga milliy ruh, mahalliy muhit va o‘ziga xoslik bag‘ishlovchi birliklar. Tarjimadagi *“tangirqash”* so‘zi ukrain yoki rus tillarida yo‘q. Hikoyada: *...посмотрел на еврея большими глазами...* – bunday tushunchaning aynan bir so‘z bilan ifodalanuvchi ekvivalenti yo‘qligi tabiiy. Chunki bunday so‘zlar ma’lum bir xalqning turmush tarzi, diniy-mifologik dunyoqarashi yoki mahalliy maishiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Tarjimon

asarni o‘zbek kitobxoniga yetkazib berishda shunday ekvivalentsiz so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri kalka qilish o‘rniga, o‘zbek milliy mentalitetiga va tiliga yaqin bo‘lgan ekvivalentlar yoki jonli xalqona so‘zlarni tanlaydi. Bu orqali kitobxon tushunishi osonlashadi, chet el muhiti o‘zbek kitobxoniga yot yoki tushunarsiz bo‘lib qolmaydi, balki uning o‘z ona tilidagi qadrdon ohangda qabul qilinadi. Shuningdek, asarning badiiy ta’sir kuchi saqlanib qoladi, tarjima sun’iy yoki qolipli chiqmasdan, xuddi o‘zbek tilida yozilgandek tasavvur uyg‘otadi.

Asarni tarjima qilishda tarjimon oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – mahalliy koloritni saqlash edi. Hikoyadagi Borislav neft konlari, mahalliy sotsial qatlam vakillari, boylar va qashshoq dehqonlar muhitiga xos bo‘lgan atamalar tarjimada o‘z ekvivalentini topgan. Jumladan, matndagi qahramonlarning ruhiy zo‘riqishini ko‘rsatuvchi dialoglar va monologlar tarjimasida pragmatik moslashuv muhim rol o‘ynagan.

Asardagi badiiy tasvir vositalari ham imkon qadar saqlangan. Metaforalar, qiyoslar va emotsional-ekspressiv birliklar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida qayta yaratilgan. Shu bilan birga, Cho‘lpon ba’zi o‘rinlarda erkin tarjima usulidan ham foydalanadi. Bunday holatlarda asliyat mazmuniga putur yetmaydi, aksincha, kitobxon uchun fikrning ta’sirdorligi va tushunarliligi kuchayadi. Demak, tarjimon uchun asosiy mezon shakl emas, balki badiiy ta’sirni saqlash hisoblanadi.

“Million” hikoyasining ushbu o‘zbek tilidagi tarjimasi tarjima amaliyotining yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda madaniy ekvivalentlik va badiiy yaxlitlikni saqlashga katta e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, dialoglarga boy sahnalarda jumlalarning qisqa, lo‘nda va dinamik berilgani voqealar rivojining tezligini ta’minlaydi.

Hikoya tarjimasida psixologik zo‘riqish va dramaning kuchayishi aynan saqlangan. Qahramonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlar, ruhiy silsilalar asarning mazmun jihatidan yuqori cho‘qqisiga chiqqanini ko‘rsatadi. Umid va noumidlik to‘qnashuvi Mexayloning dastlab neft chiqqanidan quvonib, Shixterboy bilan haddan tashqari pafosli va soddadil tarzda shartnoma tuzishida ko‘rinadi hamda uning naqadar sodda, hayotdan saboq olmagan dehqon ekanini ochib beradi. Mirzaning kichik xiyonati (“kraysir” so‘zining qasddan tushirib qoldirilishi) oddiygina qog‘ozbozlik yoki hujjat xatosi emas, balki butun boshli inson taqdirini ostin-ustun qilib yuboradigan fojiaviy detal sifatida xizmat qiladi. Majoziy va ramziy ifodalar kuzatiladi.*“Xuddi sovunning ko‘pigiday, chinakam, uchib ketadimi?”* **–** insonning eng ulug‘ orzulari hech narsaga arzimasligi va bir zumda yo‘q bo‘lib ketishi mumkinligini ko‘rsatuvchi yorqin majozlardan biridir. Mexaylo millionga erishdim deb o‘ylab uxlab qolishi, ammo Shixterning uni aldab, pul solingan qop o‘rniga oddiy dumaloq sarjinni qo‘yib ketishi soxta boylik va hayotning achchiq haqiqati o‘rtasidagi ramziy qarama-qarshilikdir. O‘limi oldidan uning qo‘lida pul emas, yog‘och sarjin qolishi muallifning o‘tkir ijtimoiy tanqidini ko‘rsatadi.

Asarning so‘nggi jumlasi bo‘lgan *“Qani, axir, adolat?..”* savoli ritorik savol, ta’bir joiz bo‘lsa, ritorik murojaat bo‘lib, faqat Mexayloning emas, balki jamiyatdagi tengsizlik va nohaqliklardan jabr ko‘rgan millionlab odamlarning hukumat rahbarlariga savoli, umumiy nolasi hikoyaning bosh g‘oyasi hisoblanadi.

To‘g‘ri ta’kidlanganiday: “Tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima etar ekan, uning stilini albatta berishi kerak. Bu adabiy tarjimaning asosiy qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa original asarning stilini bera bilishidadir” [8. B. 46]. J.Sharipov keyingi o‘rinda bizda asl nusxa uslubini bergan tarjimalar ko‘pligi, mohir tarjimonlar bu og‘ir ishni sharaf bilan bajarganlari haqida so‘z yuritib, qator tarjimonlar sirasida Cho‘lpon nomini ham qayd etadi [8. B. 46].

Cho‘lponning tarjimada yozuvchining asliyatdagi uslubini saqlashi to‘g‘risida so‘z yuritganda adabiyotshunoslar ijobiy munosabat bildiradilar. G‘.Salomovning e’tiborli “Til va tarjima” tadqiqotida garchi I.Franko asarlari tarjimasiga to‘xtalinmagan bo‘lsada, N.Gogol, A.Pushkin, M.Gorkiy asarlari tarjimasi haqida, xususan, badiiy tarjima, so‘z tanlash, iboralar tarjimasi, uslubni saqlash kabi masalalar tahlil qilinadi [9. B. 62].

Hikoyada asliyatning g‘oyaviy mazmuni, psixologik ta’siri va badiiy qimmati saqlangan holda, o‘zbek tilining milliy ifoda imkoniyatlari to‘liq namoyon etilgan. Cho‘lpon tarjimasi tarjimonning ikki tilni bilishi emas, balki ikki xalqning madaniyati va badiiy tafakkurini chuqur anglagan ijodkor ekanini tasdiqlaydi. Ushbu hikoyada tarjimon voqealarning fojiaviy ruhini, qahramonlarning ichki psixologik holatini hamda asar muhitini o‘zbek tilining boy tasviriy vositalari orqali juda ta’sirli va ishonarli yetkazib bergan. “Million” hikoyasining tarjimasi tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli hisoblanadi. Unda madaniy realiyalarni berish, badiiy so‘zning emotsional-ekspressiv quvvatini saqlash hamda o‘quvchiga asar qahramonlarining fojiasini to‘laqonli his ettirish talablari to‘liq bajarilgan. G‘.Salomov to‘g‘ri ta’kidlaganiday, “Tarjima asl nusxani almashtirmaydi, balki o‘quvchida originalga qiziqish uyg‘otadi, deyishadi. Ushbu ta’rif garchi tarjimaning mazmuni va maqsadiga unchalik qoyilmaqom bo‘lmasa-da, vositachi til orqali o‘girish usuliga to‘g‘ri keladi” [10. B. 65].

XULOSA

XX asr boshlarida o‘zbek tarjimachiligi taraqqiy etdi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda Cho‘lponning xizmati beqiyos bo‘lib, uning tarjimalari nafaqat jahon adabiyotini o‘zbek kitobxoniga tanitdi, balki o‘zbek adabiy tilining uslubiy imkoniyatlarini ham boyitdi. Cho‘lpon tarjima qilgan Ivan Frankoning “Million” hikoyasi ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda tarjimonning badiiy mahorat va ijodiy yondashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ivan Franko asarlarining markazida inson qadri, mehnat, adolat va ma’naviy poklik masalalari turadi. Bu g‘oyalar Cho‘lponning ma’rifatparvarlik qarashlari bilan hamohang bo‘lganligi sababli mazkur asarning tarjima qilinishi tasodifiy emas. “Million” tarjimasi o‘zbek kitobxonlarini ukrain adabiyoti bilan tanishtirishda muhim o‘rin tutdi. Bu tarjima milliy tarjimachilik madaniyati rivojiga ham munosib hissa qo‘shdi. Cho‘lpon tarjimalari keyingi avlod tarjimonlari uchun badiiy tarjimada asliyatga hurmat va milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanishning namunasi bo‘lib xizmat qildi. “Million” hikoyasi tarjimasi tarjimachilik san’atining muvaffaqiyatli namunasidir. Tarjimon asliyat g‘oyasi va badiiy qimmatini saqlagan holda uni o‘zbek tilining tabiiy ifoda imkoniyatlari orqali qayta yarata olgan. Asarda leksik, uslubiy va sintaktik transformatsiyalar tarjimaning badiiy mukammalligini ta’minlaydi. Shu bois mazkur tarjima nafaqat Cho‘lpon ijodini, balki XX asr boshlaridagi o‘zbek badiiy tarjimachiligi taraqqiyotini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Франко И.* Миллион / Чўлпон таржимаси. – Тошкент: Ўзбек давлат нашриёти, 1930. – 60 б.
2. *Франко И.* Феруза / Чўлпон таржимаси. – Тошкент: Ўзбек давлат нашриёти, 1930. – 42 б.
3. *Франко И*. Миллион / Нашрга тайёрловчи: Н.Каримов // Жаҳон адабиёти. – 2016. – №1. – Б. 53–88.
4. Чўлпон. Таржималар / Нашрга тайёрловчилар: Д.Абдуллаева, И.Мадғозиев, С.Исломова. – Тошкент: Забаржад Медиа, 2025. – 464 б.
5. *Франко И*. Сочинения в 10 томах. Т. 2. Рассказы и повести. – Москва: Гос. изд-во художественной лит-ры. – 586 с.
6. *Франко И*. Произведении. [Электронный ресурс]. URL: https://www.i-franko.name/ru/Prose.html (Дата обращения: 16.01.2026)
7. *Саломов Ғ.* Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1961. – 162 б.
8. *Шарипов Ж*. Бадиий таржима ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – 138 б.
9. *Саломов Ғ.* Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.
10. *Саломов Ғ*. “Подстрочник” (таглама) ва “воситали таржима”дан “асл нусха тилидан таржима” формуласига // Китобда: Таржима санъати. 4-китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 328 б.

THE STORY “MILLION” IN CHULPAN’S TRANSLATION

Dildora Z. Abdullaeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 92-100.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: Chulpan, Ivan Franko, “Million”, Uzbek translation studies, Jadid literature, comparative-typological analysis, literary translation, national color, equivalents.

Introduction: Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Chulpan (1897-1938) holds a distinct place as one of the founders of the Uzbek school of translation in the early 20th century. In the 1930s, Chulpan translated Ivan Franko’s short story “Million” into Uzbek. Written in 1887, the story promotes the ideas of human dignity, labor, justice, and social equality, which strongly resonate with Jadid literature and Chulpan’s

own social views. Until recently, this translation had not been systematically analyzed by specialists. The translation is of significant scholarly interest regarding the rendering of equivalents, realia, proverbs, idioms, and lacunae.

Materials and Methods: Chulpan's translation of "Million" was first published as a separate book by the "Uzbek State Publishing House" in Tashkent in 1930 [1]. This translation was subsequently republished by the literary scholar Naim Karimov in 2016 in the journal *Jahon Adabiyoti* [3. P. 53]. However, the journal version contained certain discrepancies, omissions, and flaws compared to the 1930 text. The collection of Chulpan's translations published in 2025 restored the original 1930 variant, correcting the flaws and omissions of the journal edition [4. P. 25]. The study employs comparative-typological, historical-cultural, and semantic methods.

Results and Discussion: Given that the author's artistic intent and central idea are revealed through the protagonist, the internal tragedy of the main character, Mykhailo Zalypnyak (Zalepiga), his hatred toward society and the wealthy, as well as the psychological states of other characters, are fully reflected in the translation. A key feature of Chulpan's translation is his aspiration to recreate the content artistically rather than literally. The translator sought to convey the characters' speech, psychological state, and the author's style through natural expressive means of the Uzbek language. To convey national color, social origins, and psychological conditions vividly, Chulpan utilized colloquial vocabulary, phraseological units (idioms), and folk expressions. Since the characters are ordinary peasants, laborers, and impoverished individuals, colloquial lexis predominates over bookish or official terminology. Chulpan expressed these linguistic nuances using precise equivalent layers of conversational Uzbek.

Conclusion: In the early 20th century, Uzbek translation studies advanced to a new stage of development. Chulpan's contribution to this process is unparalleled, as his translations not only introduced world literature to Uzbek readers but also enriched the stylistic potential of the Uzbek literary language. The translation of "Million" played a vital role in acquainting Uzbek readers with Ukrainian literature and contributed significantly to the development of national translation culture. Consequently, this translation serves as an exemplary model of fidelity to the original text and the efficient utilization of national language resources for subsequent generations of translators, rendering it an essential source for studying both Chulpan's legacy and the evolution of early 20th-century Uzbek literary translation.

References:

1. Franko, I. (1930). *Million* (Cho'lpon tarjimasi) [The Million (Translated by Chulpan)]. Tashkent: Uzbek State Publishing House.

2. Franko, I. (1930). *Feruza* (Cho'lpon tarjimasi) [Feruza (Translated by Chulpan)]. Tashkent: Uzbek State Publishing House.

3. Franko, I. (2016). Million [The Million (Prepared for publication by N.Karimov)]. *Jahon adabiyoti*. No 1. Pp. 53-88.

4. Cho'lpon. (2025). *Tarjimalar* [Translations (Prepared for publication by D.Abdullayeva, IMadgoziyev, S.Islomova)]. Tashkent: Zabarjad Media.

5. Franko, I. (n.d.). *Sochineniya v 10 tomah. T.2. Rasskazy i povesti* [Works]. In 10 volumes. Vol. 2. Stories and tales. Moscow: State Publishing House of Fiction.

6. Franko, I. Proizvedenii [Works]. [Online]. URL: https://www.i-franko.name/ru/Prose.html (Date of Access: 18.01.2026)

7. Salomov, G. (1961). *Maqol va idiomalar tarjimasi* [Translation of proverbs and idioms]. Tashkent: Fan.

8. Sharipov, J. (1972). *Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar* [Literary translation and skilled translators]. Tashkent: Fan.

9. Salomov, G. (1966). Til va tarjima [Language and translation]. Tashkent: Fan.

10. Salomov, G. (1988). *"Podstrochnik" (taglama) va "vositali tarjima"dan "asl nusxa tilidan tarjima" formulasiga* [From "podstrochnik" (literal) and "indirect translation" to the formula of "translation from the source language"]. In: *Tarjima san'ati* [The Art of Translation]. Book 4. Tashkent: Gafur Gulam Literature and Art Publishing House.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDULLAYEVA Dildoraxon Zumratbekovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: dildora.abd@mail.ru